

KIM SAKKAT VA MUQIMIY ASARLARIDA SATIRANING QIYOSI

**Elmuratova Umida**

*PhD: Samarqand davlat chet tillar instituti*

**Meliyeva Shaxrizoda Dilmurod qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*shaxrizodameliyeva7@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada o'zbek satirik adabiyotining yirik vakili Muqimiy va koreys adabiyotining mashhur satirik shoiri Kim Sakkat ijodida satira janrining tutgan o'rni qiyosiy tahlil qilinadi. Muqimiy asarlarida mahalliy amaldorlar, boylarning zulmi, jamiyatdagi adolatsizlik tanqid qilinadi. Kim Sakkat satirasida esa amaldorlarning poraxo'rliqi, jamiyatdagi ma'naviy tanazzul hajviy ruhda fosh qilingan. Maqolada har ikki shoirdan olingan parchalar misolida satiraning badiiy vositalari, g'oyaviy yo'nalishi va ijtimoiy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *satira, hajv, adabiyot, Muqimiy, Kim Sakkat, tahlil, qiyos, badiiy vosita, ijtimoiy tanqid.*

**Satira** — bu insonning kamchiliklarini va jamiyatdagi salbiy hodisalarni ochiq-oydin tanqid qilish hamda fosh etishga qaratilgan badiiy asar turi, hajviyotning bir ko'rinishidir. Ular ko'pincha kulgi orqali tasvirlanadi va o'quvchiga to'g'ridan-to'g'ri munosabatini bildirib, real hayotdagi kamchiliklarni chuqur tushuntirib beradi.

Satiraning asosiy xususiyatlari:

**Komiklik:** Satiraning asosiy vositasi kulgidir. Bunda kulgi orqali insondagi nuqsonlar yoki jamiyatdagi kamchiliklar ochib beriladi.

**Tanqid:** Satira qahramonlar yoki voqealarning salbiy jihatlarini ayovsiz tanqid qiladi va ularni fosh etadi.

**Ijodkorning munosabati:** Ijodkorning mavzuga bo'lgan munosabati o'z his-tuyg'ularidan ustun turadi. Masalan, o'quvchi adabiyotda satira asosida muallifning xohishi bilan qabul qilinishi kerak.

**San'at vositalari:** Satirada ko'pincha g'ayriinsoniy tasvirlar, haddan tashqari u lug'lash (hiperbola) va boshqa san'at vositalaridan foydalaniladi.

**Mantiqiy buzilish:** Satira, ba'zi holatlarda, real hayotning mantiqini buzib, kulguli va g'ayriinsoniy obrazlar yaratish uchun ishlatiladi. Bu holatda qiziqarli, shuningdek, o'z-o'zidan yuzaga keladigan ta'sirchan ko'rinishlar yuzaga keladi.  
[<https://uz.wikipedia.org/wiki/Satira>]

Shuningdek, Har bir xalqning adabiyotida satira o'ziga xos shaklga ega bo'ladi. O'zbek adabiyotida Muqimiy satira maktabining asoschilaridan biri sifatida tanilgan bo'lsa, koreys adabiyotida Kim Sakkat hajviy ijodning eng yorqin namoyandalaridan sanaladi. Ularni

umumlashtiruvchi jihat — zulm, jaholat, poraxo'rlik, mansabparastlik kabi illatlarni hazil-mutoyiba, kinoya va mubolag'a orqali tanqid qilishdir.

**Muqimiy hayoti va ijodi:** Muqimiy (1850–1903) – o'zbek adabiyotining taniqli shoiri, ma'rifatparvar ijodkor va hajv ustasi. Uning asl ismi Muhammad Aminxo'ja bo'lgan. Shoir Qo'qonda tug'ilgan va avval mahalla maktabida, keyin "Moxlar oyim" madrasasida tahsil olgan. Madrasa yillarida u arab va fors tillarini, mumtoz adabiyot namunalarini o'rgangan. Yoshligidan she'riyatga qiziqqan, xalqning turmushini kuzatgan.

Muqimiy umrining katta qismini oddiy xalq orasida o'tkazgan, shuning uchun uning asarlarida tabiiylik va xalqona til ustun. U jamiyatdagi adolatsizlik, poraxo'rlik, eski tartiblarning zararini tanqid qilgan. Ayniqsa, uning satirik asarlari mashhur. "Tanobchilar"da chor amaldorlarining ochko'zligi va nodonligi kulgili tarzda fosh etiladi. Muqimiy kulgi orqali odamlarni o'ylashga, adolatli bo'lishga, jamiyatdagi yomon odatlardan voz kechishga chaqirgan. Shuningdek, shoirning "Sayohatnoma" asari ham muhimdir. U sayohat davomida ko'rgan qishloq va shaharlarning ahvolini tasvirlab, xalqning qashshoqligi, yo'llarning xaroblighi, hayotning og'irligini real ko'rsatadi. Shunga qaramay, Muqimiy kelajakdan umidini uzmaydi, yaxshilik, ma'rifat va adolatga ishonadi. Shu sababli, Muqimiy o'zbek adabiyotida yangi yo'nalish – tanqidiy va demokratik ruhni shakllantirgan shoir sifatida tanilgan. [6-sinf adabiyoti 98,99,100-betlar]

Muqimiyning satirik uslubi: Muqimiy o'zbek satirik adabiyotining klassik namo yandasi bo'lib, uning ijodida ijtimoiy adolatsizlik, mahalliy amaldorlarning zulmi asosiy mavzuni tashkil etadi. Shoir "Tanobchilar", "To'y", "Moskovchi boy ta'rifida" kabi asarlari orqali jamiyatdagi illatlarni ochiq fosh qiladi.

Misol uchun tariqasida adibning „Tanobchilar“ satiric hikoyasi amaldorlar zulmiga yo'liqqan dehqon arz-dodi bilan boshlanadi:

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,  
Arz etayin emdi yozib nomalar  
Adil qulog'i-la eshit holimi,  
Zulm qilur, baski, menga zolimi  
O'n ikki oydan keladur bir tanob,  
O'zgalara rohat-menga azob  
Sulton Ali Xo'ja, Hakimjon ikav,  
Biri xotun, birisi bo'ladi kuyov. [Tanobchilar asari]

Asarda kambag'al chorakor dehqon mehnatidan o'z manfaatlari uchun foydalangan, ularni aldab katta zarar yetkazgan Sulton Ali va Hakimjon hiylakor mahalliy amaldorlar qiyofasi shoir tomonidan o'tkir, ta'sirchan misralarda fosh etilgandir. Shu sababli bu asarda Muqimiy kulgi orqali odamlarni hushyor tortadi, zulmga ko'nmaslikka, haqiqat va adolatni himoya qilishga chaqiradi.

**Kim Sakkat hayoti va ijodi:** Xalq orasida satirik shoir Kim Sakkat (1801–1863) asarlari ayniqsa mashhur bo'lgan. Uning haqiqiy ismi Kim Ban' yon, lekin shoir iste'dodi muxlislari uni asosan Kim Sakkat sifatida taniydilar. "Sakkat" o'tkir uchli poxol qalpoq bo'lib, shoir

uni kiyib mamlakat bo'ylab darbadar kezgan va o'z she'rlarini yozib, ularni qishloqlarda va shahar ko'chalarida olomonga o'qib bergan. Uni Koreyada hamma bilgan, u xitoy tilida ijod qilgan so'nggi shoirlardan biri bo'lgan. Kim Sakkatni o'z hayotida hech qanday qoidalaridan chetlanmagan va o'z erkinligini hamma narsadan ustun qo'ygan, daydi hazilkash shoir sifatida tasavvur etishadi. Unda dunyo noz-ne'matlarini, boylarning o'z yerlini ham, mansabparastlikni ham inkor etadigan va jamiyatda qabul qilingan sun'iy-qoidalarni yoqtirmaydigan shoir obrazi mujassam. Shu bois, qayta Kim Sakkatdan keyin Koreyada bunday shaxslar boshqa paydo bo'lmagan.

Kim Sakkat ijod yo'lida - o'zi ko'rgan va eshitgan, o'ylagan va his qilgan narsalar haqida yozadi. Uning xalqona yumorga to'la she'rlarida boylarning ochko'zligi va rahmsizligi, ularning fahmsizligi va takabburligi, texnikoz'o tarzidagi turmush ustidan kulinadi, oddiy xalqqa muhabbat, uning og'ir qismatiga hamdardlik ohanglari yangraydi ("Burg'a", "Yanbanlarning janjallari", "It", "Yanban o'g'li", "Dangasa mehmon", "Qashshoqlik" she'rlari). U ona yurt tabiati go'zalliklarini "Olmos tog'lar", "Oq chag'alay" asarlarida madh etadi, hayot haqida falsafiy mazmun bilan yo'g'irilgan "Qariya", "Soya", "Qayg'u", "Lochin" nomli she'rlar yozadi. Uning she'riyati jamiyatning o'qimishli qismi orasida ham, xalq orasida ham mashhur bo'lgan. Ayniqsa uning "Yo'lda o'lik gardoni ko'rdim" she'rini olsak :

Siz qaysi urug'dan ekanligingizni hech kim bilmaydi,  
Sizning ismingiz noma'lum.  
Siz tug'ilib o'sgan joylarning  
Yashil daraxtzorlari qaysi o'lkada?  
Sizning tanangizga pashshalar tashlandi,  
Uzzukun-ertadan kechgacha g'o'ng'illashadi  
Quzg'unlarga sizning yog'ingiz rulini pichoqday sharqadi,  
Tongda sizni sovuq yod etadi.

Sizdan qolgan bor buyum – kalta tayoq.[O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Koreya) o'quv qo'llanma 174, 175-betlar.]

Bu satrlarda nomi esda qolmagan, qadr topmagan kambag'al odam haqida aytiladi. U o'lgandan keyin ham hurmat ko'rmaydi: tanasiga pashsha va quzg'unlar yopishadi, sovuqda qoladi. Shoir shu orqali jamiyatning befarqligini va adolatsizligini fosh qiladi.

**Muqimiy va Kim Sakkat satiralaring o'xshashliklari:** Muqimiy ham, koreys xalq shoiri Kim Sakkat ham o'z asarlarida jamiyatdagi adolatsizlikni, mansabparastlarni, manman va nodon kishilarni kulgi vositasida fosh qilgan ijodkorlardir. Har ikki shoir satiralarni shunchaki kulgi uchun emas, balki jamiyatdagi illatlarni tuzatish, insonlarni xushyorlikka chorlash maqsadida yozgan.

Keltirilgan parchada Kim Sakkat jamiyatga keraksiz, o'zi kimligi noma'lum, jamiyatga foydasi tegmagan bir odam timsolini yaratadi. Shoir bunday odamni "ismingiz noma'lum", "qayerda tug'ilgansiz – hech kim bilmaydi" deya tasvirlab, uning hayotdan behuda o'tganligini istehzo bilan ko'rsatadi. Hatto o'lgach ham undan "faqat kalta tayoq" qolishi,

uning butun hayoti mazmunsiz, ortida iz qoldirmaganligini anglatadi. Bu – satiraning eng keskin nuqtasidir: odam yashab, ammo yashamagan. Muqimiy satirasida ham xuddi shunday badiiy qurollar mavjud. U mansab egalarini, amalparastlarni masxara qiladi, ilmga ega bo'lmagan yuqori lavozimga intiluvchilarni kulgili qiyofada tasvirlaydi. Muqimiyning shoirona kinoyasi bilan Kim Sakkatning istehzosi bir joyda tutashadi: ikkalasi ham jamiyatda foydasiz, amal uchun yashagan, nomi ham, izi ham qolmaydigan odamlarning ma'naviy qashshoqligini ochib beradi. Biri o'limdan keyin “faqat tayoq” qoldirsa, Muqimiyda bunday kimsalar “yog'och boshi” yoki “palyonchi amaldor” sifatida quruq nom bilan tilga olinadi. Shu sababli ikki ijodkorning ham hayot yo'li va ijodi juda ko'p o'xshashliklar bor. Ayniqsa, bu ikki ijodkor ham faqat xalqning dardini oshkor qilib ijod qilgani bois ular xalq oldida katta hurmatga sazovor bo'lganlar.

**Xulosa:** Muqimiy va Kim Sakkat ijodidagi satira – ikki xalq, ikki madaniyat, ikki davr mahsuli bo'lsa-da, ularni birlashtirgan kuch bitta: jamiyatdagi illatlarni fosh etish va insonni uyg'otish. Muqimiy “Tanobchilar” singari hajviyotlarida amaldorlarning zolimligi, nodonligi va riyokorligini ochib berar ekan, zulm ostida qolgan xalqning dardini ifoda etadi. Kim Sakkat esa satira orqali insonning ma'naviy qashshoqligini, umri behuda o'tgan, jamiyatga naf keltirmagan kishilarning fojeasini keskin istehzo bilan tasvirlaydi. Har ikki shoirning quroli — kulgi, ammo bu kulgi shunchaki ermak emas, balki tarbiya, hushyorlik va ogohlantirishdir. Ular zamon va makon jihatdan uzoq bo'lsalar-da, fikr jihatdan yaqin: insonning qiymati boylikda emas, amalida; martabada emas, halollikda; nomda emas, izda. Shu bois Muqimiy ham, Kim Sakkat ham o'z xalqi ongiga satira vositasida ta'sir ko'rsatdi, adolat, halollik, ma'rifat, va insonning haqiqiy qadrini ulug'ladi. Ularning satirasi bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan, chunki har bir davr jamiyatida kulgi ostiga tushishga arzigulik illatlar bor va ularni tuzatishga intiladigan zukko qalblar kerak.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
2. 6-sinf Adabiyoti darsligi, 1-qism 98, 99, 100- betlar 2014
3. <https://tafakkur.net/tanobchilar/muhammad-aminxoja-muqimiy.uz>
4. Tanabchilar kitobi
5. O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Koreya) o'quv qo'llanma 174, 175-betlar.